

Mulohaza

Bugungi kunda zamonaviy qurilish sanoati iqtisodiyot, ijtimoiy barqarorlik va xavfsizlik bilan bog‘liq strategik sohalardan biriga aylandi. Qurilish madaniyati har bir millatning rivojlanish darajasini belgilab beradigan muhim ko‘rsatkichlardan biridir.

Keyingi yillarda O‘zbekistonda jadal urbanizatsiya jarayoni kuzatilmoqda. Ayniqsa, yirik shaharlar, xususan, Toshkent shahridagi qurilish oxirgi yillarda yangi arxitektura qiyofasini shakllantirmoqda. Zamonaviy ko‘p qavatli uy-joylar, biznes markazlari, ijtimoiy infratuzilma obyektlari va transport yo‘laklarining barpo etilishi nafaqat shahar ko‘rinishiga, balki aholi turmush tarziga ham jiddiy ta‘sir ko‘rsatyapti.

Shu bilan birga, aholining uy-joyga bo‘lgan talablari tobora ortib borayotganiga ham guvohimiz. Avvallari fuqarolar ko‘p yillar davomida uy-joyga muhtoj holda ijarada yashagan bo‘lsa, hozirgi paytda qurilish kompaniyalari tomonidan taklif etilayotgan qulay shartlar, ya‘ni uy narxini bo‘lib to‘lash imkoniyati, dastlabki badalsiz yoki past foizli ipoteka kreditlari keng aholi qatlamlarini o‘z turar joyiga ega bo‘lishga undamoqda.

Bir so‘z bilan aytganda, qurilish sohasida sog‘lom raqobat muhiti vujudga kelgan. Bu esa, o‘z navbatida, sifatga e‘tiborni oshirmoqda. Ya‘ni har bir qurilish tashkiloti o‘z loyihasi orqali mijozni jalb etishga harakat qilmoqda. Shuning uchun zamonaviy loyihalar nafaqat tashqi ko‘rinishi bilan, balki ichki qulayliklari, funksionalligi, energiya tejovchi va ekologik toza materiallardan foydalanishi bilan ham farq qiladi.

Biroq ushbu sur‘atdagi qurilish jarayonlari bilan bir qatorda uning xavfsizlik masalasi e‘tibor markazida bo‘lishi lozim. Chunki O‘zbekiston seysmik faol hududlar qatoriga kiradi. Mamlakatimizda yuz berishi mumkin bo‘lgan zilzilalarga qarshi barcha inshootlar, ayniqsa, ko‘p qavatli turar joylar barpo etilayotganda seysmik bardoshlilik talablariga qat‘iy rioya qilinishi zarur.

So‘nggi yillarda dunyoda yuz bergan yirik zilzilalar ko‘plab qurbonlarga, iqtisodiy yo‘qotishlarga olib keldi. Bunday holatlar xavflarga jiddiy yondashish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Mamlakatimizda keyingi yillarda bu sohada olib borilayotgan keng ko‘lamli ishlar, qabul qilingan qaror va farmonlar, tegishli idora va muassasalar faoliyatidagi yangiliklar mazkur yo‘nalishda jiddiy islohotlar amalga oshirilayotganidan dalolat beradi.

Bugungi kunda har bir yangi qurilayotgan inshoot uchun loyihaoldi tekshiruvlari va ekspertiza jarayonlari kuchaytirilgan. Pasportlashtirish tizimi orqali mavjud binolarning seysmik holatiga baho berilayotir. Masalan, pasportbino.uz elektron platformasi orqali ko‘p qavatli turar joylarning texnik holati baholanib, seysmik zaif bo‘lgan binolar aniqlanmoqda. Bunday uyalar yoki rekonstruksiya qilinadi, yoki renovatsiya rejası asosida buzilib, o‘rniga zamonaviy va xavfsiz turar joylar quriladi.

Bundan tashqari, davlat tomonidan joylarda nazorat kuchaytirilib, har bir qurilish jarayonida arxitektura-qurilish nazorati va seysmik

ZAMONAVIY SHAHARSOZLIKDA YANGI TALABLAR

YOXUD SEYSMIK XAVFSIZLIK — MILLIY BARQARORLIK POYDEVORI



ekspertiza olib borilmoqda. Har bir loyihani amalga oshirishdan avval yer osti tuzilishi, seysmik faollik darajasi, muhandislik-geologik tahlillar o‘rganilib, shunga asosan loyihalar tasdiqlanadi.

Ammo amaliyotda ayrim hollarda nazoratsiz yoki litsenziyasiz qurilish ishlari, ba‘zan sifatizs materiallardan foydalanish holatlari ham aniqlanmoqda. Ayniqsa, xususiy qurilish tashkilotlari tomonidan tezroq foyda olish maqsadida qurilish muddatlari qisqartirilayotgani, sifati esa e‘tibordan chetda qolayotgan holatlar jiddiy xavotir uyg‘otadi. Shuning uchun ham davlat nazorati bilan bir qatorda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, aholini qurilish jarayonlarida ishtirok etishga undash muhim vazifalardan biridir.

Joriy yil 13-may kuni davlatimiz rahbari seysmik xavfsizlikni kuchaytirish bo‘yicha takliflar taqdimoti bilan tanishdi. Mazkur masala nafaqat qurilish sohasi, balki keng ma‘noda milliy xavfsizlik va inson hayotining muhofazasi nuqtayi nazaridan ham strategik ahamiyat kasb etadi. Shu bois, taqdimotda Prezidentimiz tomonidan bildirilgan fikrlar zahirida yurtimizda qurilish sifati, seysmik barqarorlik, ilmiy yondashuv va huquqiy nazoratni chambarchas bog‘lash zarurati yotadi.

Bu yo‘nalishda qator tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda, xususan, qonunchilik ustuvorligini ta‘minlash masalasi prokuratura organlari tomonidan qat‘iy nazoratga olingan. O‘z navbatida, qurilishning ilmiy asoslaridan biri bo‘lgan seysmologiya sohasini rivojlantirish, uni zamonaviy texnologiyalar bilan boyitish ham muhim vazifaga aylandi. Shu maqsadda xorijiy ilmiy markazlar bilan hamkorlik qilinmoqda, innovatsion texnologiyalar tatbiq etilyapti.

Bu nafaqat loyihalash, balki qurilishning har bir bosqichida — monitoring, baholash va foydalanish jarayonida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Seysmik xavf — global muammo. Birlashgan Millatlar Tashkiloti hisob-kitoblarga ko‘ra, har yili Yer yuzida o‘rtacha 4-6 ball darajasida 500 ga yaqin zilzila qayd etiladi. Oxirgi 20-yil mobaynida turli seysmik va tabiiy ofatlar tufayli 1,2 milliondan ziyod inson halok bo‘lgan, 4,2 milliard kishi turli darajada jabrlangan. Bu faktlar tabiiy ofatlarga tayyorgarlik ko‘rish har bir mamlakat uchun strategik vazifa ekanini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston tarixidagi eng yirik zilzila 1966-yil 26-aprel kuni Toshkentda ro‘y bergan. Bu ofat oqibatida Toshkentning katta qismi vayron bo‘lgan, ammo qisqa fursat ichida shahar tubdan qayta tiklangan. Bu qayta qurilish mahalliy va xalqaro mutaxassislarning sa‘y-harakatlari bilan amalga oshirilgani bois, Toshkent “Xalqaro quruvchilar shahri” deb e‘tirof etilgan.

So‘nggi yillarda qurilgan binolar qayta ko‘rib chiqildi, ularning texnik holati xalqaro mutaxassislar ishtirokida to‘liq baholandi. Bu jarayon nafaqat mavjud infratuzilmani baholash, balki kelajakdagi qurilishlar uchun aniq standartlar va me‘yorlar belgilashga ham xizmat qiladi.

Seysmologik jarayonlar nafaqat milliy xavfsizlik, shu bilan birga, global barqarorlik nuqtayi nazaridan ham muhim hisoblanadi. Bunga davlatimiz rahbarining xalqaro tashabbuslari orqali ham guvoh bo‘ldik. 2024-yilda BMT Bosh Assambleyasi 29-aprel sanasini “Zilzila qurbonlarini xotirlash xalqaro kuni” deb e‘lon qildi. Bu tarixiy qaror seysmik xavflarga qarshi kurashda O‘zbekistonning

xalqaro maydondagi pozitsiyasiga yuqori baho berilganini ko‘rsatadi.

Seysmik xavfsizlik masalasi bugungi kunda O‘zbekistonda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga, milliy barqarorlik va jamoat xavfsizligining asosiy kafolatiga aylandi. Bugungi kunda mutaxassislar, xalqaro ekspertlar,



tegishli vazirlik va idoralar vakillari bilan birgalikda seysmik xavfsizlikni ta‘minlashda ilmiy yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha kelishuvlar yuzaga kermoqda. Xorijiy ekspertlar ta‘kidlaganidek, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar jiddiy ilmiy-amaliy yechimlarga bog‘lanyapti. Ular nafaqat loyihalash jarayonida, balki konsalting, kadrlar tayyorlash, sinov va instrumental baholash bosqichlarida ham o‘z tajribalari bilan o‘rtog‘lashishga tayyor ekanini bildirgan. Zero, texnologiya va tartib ofat oldidagi ishonchli mudofaadir.

Seysmik xavfsizlikni ta‘minlash yo‘lidagi ishlar, avvalo, normativ-huquqiy bazani takomillashtirishdan boshlandi. Prezidentimizning bir qator farmon va qarorlari

“Qurilish sohasida xavfsizlik davlat va jamiyat uchun ustuvor masala bo‘lishi kerak. Chunki har bir qurilayotgan binoda insonlar yashaydi, ishlaydi, oilalar turmush kechiradi. Shu bois, har qanday qurilish avvalambor odamlar hayoti uchun xavfsiz bo‘lishi shart.



asosida tegishli “yo‘l xaritalari” ishlab chiqildi, qurilish sohasidagi nazorat, texnik reglamentlar va inspeksiyalar faoliyati huquqiy jihatdan mustahkamlandi. Shu bilan birga, bino va inshootlarning seysmik holatini baholashda ilk bor raqamlashtirish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. Elektron texnik pasportlar joriy etildi, ular orqali har bir qurilish maydonining seysmik holati, loyihada qo‘llangan materiallarning mustahkamlik ko‘rsatkichlari haqidagi ma‘lumotlar “pasportbino.uz” platformasi orqali onlayn kuzatib borilmoqda.

Mazkur tizim orqali yurtimizning turli hududlarida joylashgan minglab ko‘p qavatli uyalar ro‘yxatga olindi. Masalan, Namangan viloyatida 1476 ta ko‘p qavatli turar joy ushbu platformaga kiritildi. Ular instrumental-texnik tekshiruvdan o‘tkazildi, vizual ko‘rik natijasida 384 ta uy seysmik jihatdan zaif deb topildi. Ulardan 55 tasi allaqachon buzib tashlanib, ular o‘rinda zamonaviy va zilzilabardosh turar joylar qurish ishlari boshlangan. Bu tizim faqat nazorat funksiyasini emas, balki uy-joylar renovatsiyasi, texnik holatni baholash va shaharsozlik normalariga muvofiqligini ta‘minlashda ham asosiy vosita sifatida xizmat qilmoqda.

Qurilish sohasida seysmik izolyatsiya texnologiyalarini joriy etish va xalqaro tajribani o‘rganish ham dolzarb vazifalardan biridir. Yaponiya, Italiya va Turkiya kabi davlatlar bilan bu yo‘nalishda samarali hamkorlik olib borilyapti. Yaponiyaning JICA agentligi bilan birgalikda xalqaro simpoziumlar tashkil qilindi, Italiyaning Turin politexnika universiteti bilan esa zilzilabardosh qurilish bo‘yicha o‘quv dasturlari ishlab chiqilgan. 2023-yilda “Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasi mutaxassislari sertifikatlash tizimi” yo‘lga qo‘yilib, hozirgacha 9835 nafar mutaxassis malaka oshirish kurslarida qatnashgan. Bu esa sohada ilmiy, kasbiy va amaliy yondashuvlarning o‘rishiga zamin yaratmoqda.

Seysmik xavfsizlikni ta‘minlashda ilmiy tadqiqotlar ham alohida o‘rin tutadi. Seysmologiya instituti hamda loyiha tashkilotlari hamkorligida Toshkent, Chirchiq, Jizzax shaharlari uchun seysmik mikrohududlashtirish xaritalari tuzildi. Bu xaritalar shaharsozlik rejalari ishlab chiqishda muhim asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Bugungi kunga kelib, amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida seysmik xavfsizlik bo‘yicha muayyan ilmdash ko‘zga tashlanadi. Biroq qurilish obyektlarida texnik va loyihaviy talablarga to‘liq rioya etilmayotgan holatlar ham aniqlanayotgani bor gap. Kamchiliklarni bartaraf etish, nazoratni kuchaytirish va max‘uliyatni oshirish bo‘yicha aniq ko‘rsatmalar berilgan. Chunki seysmik xavfsizlik faqat qurilish sohasi mutaxassislarning emas, balki butun jamiyatning hayotiy manfaatlarini ta‘minlaydigan umumdavlat vazifasidir.

Yurtimizda qurilayotgan har bir uy va inshoot nafaqat bugungi kun talablariga, balki kelajak avlodlar xavfsizligi va farovonligiga xizmat qilishi kerak. Davlatimiz tomonidan boshlangan seysmik xavfsizlikni ta‘minlashga qaratilgan keng gamrovli, tizimli va strategik yondashuv aholining hayoti, mulki va barqaror kelajagi uchun mustahkam poydevor yaratishga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, qurilish sohasida xavfsizlik davlat va jamiyat uchun ustuvor masala bo‘lishi kerak. Chunki har bir qurilayotgan binoda insonlar yashaydi, ishlaydi, oilalar turmush kechiradi. Shu bois, har qanday qurilish avvalambor odamlar hayoti uchun xavfsiz bo‘lishi shart.

Sardor TOLLIBOYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

YULDUZLARGA YAQIN QISHLOQ

MAYDANAKDAGI EKOTURIZM AHOLI DAROMADINI OSHIRMOQDA



Bugunning gapi

Osmon jismlarini o‘rganuvchi mutaxassislar fikricha, yulduzlar quruq, bug‘ kam bo‘lgan hududlarda yaxshi ko‘rinadi. Yurtimizda dashtli hududlar ko‘p. Dashtli joylarda suv bug‘lari kam bo‘lgani uchun yulduzlarning nuri bizga o‘zgarmasdan yetib keladi.

Mamlakatimizdagi bitta hudud yulduzlar haqidagi mana shunday qimmatli ma‘lumotlarni olish, ularni kuzatish uchun dunyodagi eng qulay sanoqli maskanlardan biri hisoblanadi. Bu — Qamashi tumanidagi Maydanak qishlog‘i. U yerdagi Maydanak observatoriyasining astrofizikaliy dunyodagi eng yaxshi astrofizik bo‘lib, yulduzlar xuddi kaftingizda turgandek yaqqol ko‘rinadi. Bir yilda 200 kundan ortiq tiniq tungi osmon atmosferasi nihoyatda musaffoligi, yoqimli ekologik sharoiti bilan bu joy kosmik kuzatish ishtarini olib borish uchun eng qulay obyekt deb topilgan.

Maydanak dengiz sathidan 2753 metr balandda joylashgan. Qolaversa, atrof gorizonti katta ochiqligi, atmosferaning yuqori darajada tiniqligi, tabiiy va ekologik musaffoligi astrofizik uchun muhim. Bulut bilan qoplanish darajasi, shamol va temperatura rejimi, atmosfera bosimi va nisbiy namlik kabi meteorologik elementlar Maydanak uchun alohida ahamiyat kasb etib, dunyo olimlari tomonidan tan olingan. O‘ziga xos tabiati, so‘lim havosi esa

ekoturizm shaydolarini doim ohanrabodek jalb etib keladi. Shu sabab bugun bu manzila turizmini rivojlantirish uchun qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz rahbarining 2023-yil 28-noyabrdagi “Qashqadaryo viloyatining tog‘li-rekreasion hududlarida zamonaviy xizmat ko‘rsatish va turizm obyektlarini barpo etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra, hozir Maydanak observatoriyasi hududida turizm obyektlari barpo etilmoqda. Yo‘llar ta‘mirlanib, infratuzilma yaxshilanishi natijasida hududga tashrif buyuruvchi sayyohlar soni ortmoqda. Natijada xizmatlar sifatini oshirishga, savdo shoxobchalari tashkil etishga ehtiyoj sezilgan. Bu esa shu hududdagi Katta O‘ra mahallasi aholisining o‘zini o‘zi band qilishiga zamin yaratmoqda.

Jumladan, atrofi baland archazorlardan iborat bo‘lgan mo‘jazzina tog‘li Chit qishlog‘i bugun sayyohlarga turli xizmatlar ko‘rsatishni yo‘lga qo‘ymoqda. Xususan, aholi tomonidan tayyorlangan qurutning dovrug‘i butun

mamlakatga yoyilgan. Chit qurultlarining bu qadar tanilishiga sabab shuki, qishloq chorvasi doim atrofda shifobaxsh giyohlarga boy tog‘ yonbag‘irlarida o‘tlaydi. Ulardan sog‘ib olingan sut va undan tayyorlangan qatiq, qorin yog‘i va qurut kabi mahsulotlar o‘zgacha ta‘mga ega. Bu ta‘mni his qilgan kishi borki, u mahalliy yoxud xorijlik sayyoh bo‘ladimi, shu manzilni axtarib kelishi aniq.

— Qishlog‘imiz tog‘li hududda joylashgani bois, Chorva mahsulotlari boqishga imkoniyat bor. Sigir sog‘ib, sut-qatiq qilamiz. Tayyorlagan qurultlarimiz esa ancha mashhur bo‘lib ketgan, — deydi shu qishloqda yashaydigan Saodat Bozorova. — Qurultlarimiz sifatining siri uning mutlaqo tabiiy yo‘l bilan tayyorlanishida. Ya‘ni

sutni pishirish, qatiq qilish, keyin zardobini sizdirib, kuvida pishib qaymog‘ini olish — hamma-hammasi mommeros uslubda bajariladi. Separator yoki boshqa uskunalarini ishlatmaymiz. Barchasi qo‘l mehnati mahsuli. Gohida qiziquvchilari kelib, tayyorlanish jarayonlari bilan tanishadi. O‘zlari amalda bajarib ko‘rib, mahsulotdan xarid qilib ketadi.

Chit qishlog‘i va uning atrofida archazorlarga boy so‘lim tabiat hammasi dam oluvchilar e‘tiborini tortib kelgan. Ayniqsa, issiq kunlar boshlanishi bilan u yerdan sayyohlar qadami arimaydi. Bu ham qishloqda yetishtirilayotgan sut mahsulotlari va qurultlar xaridorgirligini ta‘minlaydi.



—Bahorda kunlar isiy boshlagach, qishlog‘imiz atrofida dam olishga keluvchilar ko‘payadi, — deydi Dilfuza Norqo‘chqorova. — Turizm rivojlanishi biz uchun ham ancha yaxshi bo‘ladi. Ilgari faqat to sovuq kunlar tushguncha savdomiz yurishgan bo‘lsa, endi doimiy xaridorlarimiz bo‘ladi. Bu yerga keluvchi mehmonlar qurultlarimizdan, qatiq va qorin yog‘idan ko‘p so‘raydi. Buyurtmaga qarab tayyorlab beraveramiz. Bundan tashqari, mahsulotlarimiz po‘yaxtgacha ketadi. Ulgurji narxlarida sotamiz. Daromadimiz shundan. Uyda o‘tirib, xotin-qizlar bir oyda kamida besh-olti million so‘m ishlab topadi. Bekorchidamning o‘zi yo‘q.

Birgina qurutchilik qishloqdagi ishsiz xotin-qizlarning bandligini ta‘minlab, daromad topishiga sabab bo‘lmoqda. Buni yaxshi anglagan shu qishloqlik yosh tadbirkor Musulmon Ho‘jaqulov yaqinda xonadonida qurult tayyorlashni kengaytirdi va “Maydanak tog‘ qurultlari” brendi ostida maxsus idishlarga qadoqlangan mahsulotlarni mahalliy bozorlarga yetkazib bermoqda.


Ilgari bu manzila avtomobilda kelish ancha mushkul edi, — deydi tadbirkor M.Xo‘jaqulov. — Turizmini rivojlantirish maqsadida amalga oshirilayotgan loyihalarga ko‘ra yo‘llarimiz ancha yaxshilanoqda. Buning evaziga tabiatsevar mehmonlarning tashrif toboras ko‘paymoqda. Bu biz kabi mahalliy aholi vakillari qo‘shimcha daromad topishiga imkon yaratyapti. Avval qishloq ayollari qurut qilib, sotishning imkonini topa olmasdi. Bozor olisda. Shahar markaziga borib kelguncha ancha vaqt ketadi. Endi ular qurultlarni qishloqdan chiqmay

mehmonlarga sotmoqda. Bundan tashqari, uy sharoitida tayyorlangan sut mahsulotlarini sotib olishni yo‘lga qo‘ydik. Hozir qishlog‘imizdagi ko‘pchilik uy bekalari oyiga o‘rtacha besh-olti million so‘mdan daromad topmoqda.

Mo‘jazzina qishloqqa borgan kishi o‘zga dunyoga tushib qolganida hayratlanadi. Boisi, elliktaga yaqin xonadondan iborat bu manzil haybatli archazor ichida joylashgani bilan kishini rom etadi. Lekin odamlari mehnatkash. Bekor o‘tirishni yomon ko‘radi. Shu sabab hech biri kambag‘allik nima ekanini bilmaydi.

— Mahallamizning umumiy aholisi 3200 nafarni tashkil qiladi va unga 4 ta qishloq qaraydi, — deydi “Katta O‘ra” MFYdagi hokim yordamchisi Zokir Ro‘ziyoyev. — Ko‘rib turganingizdek, qishloqlarimiz so‘lim tabiatli. Shu bois, keyingi yillarda turizm yo‘nalishi bo‘yicha tadbirkorlarimiz tomonidan ko‘plab loyihalar amaliyotga tatbiq etilmoqda. Ya‘ni qishloqning Maydanak observatoriyasigacha bo‘lgan yo‘l yoqasida o‘tovlar tashkil qilinib, dam oluvchilarga sharoit yaratilmoqda. Hozirgi kunda bunday tadbirkorlar soni 30 dan oshdi. Chit qishlog‘i odamlari ham azaldan qurutchilik bilan shug‘ullanib kelgan. Shu qishloqlik yosh tadbirkor Musulmon Xo‘jaqulovga faoliyatini yanada rivojlantirish uchun imtiyozli kredit ajratishga ko‘maklashdik. Bu kabi loyihalarini kelgusida yanada kengaytirish orqali ishsiz fuqarolarimizning bandligini ta‘minlash, daromadlarini oshirishni maqsad qilganmiz.

Akbar RAHMONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



30-iyul — Xalqlar do‘stligi kuni

OG‘IZBIRCHILIK

MAQSADLARIMIZ MUSHTARAKLIGI, BIRDAMLIK VA HAMJIHATLIK GAROVI



Nazira MATYAYUBOVA,
Qoraqalpog‘iston Respublikasi
Jo‘qorg‘i Kengesi deputati,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan
jurnalist

Boshlanishi 1-betda

Ancha kichkina edik. To‘y-ma‘rakalarda, ba‘zida shunchaki ham uyimiz gavjum bo‘lib ketardi. Bobomning ukalari, amaki bobolarimiz oilasi, farzandlari bilan tez-tez mehmon bo‘lar, suhbatlarida birga o‘tgan bolaliklarini ko‘p eslashardi. Biz ularga ota deb murojaat qilardik.

Roman otamizning bozorda kichkinagina rastasi bo‘lib, quruq meva sotardi, Xudoyberdi otamiz cho‘pon edi. Yaylovda qo‘y boqardi, o‘tovi ham bor edi. Ermoxon otamiz shaharda yashardi. Farzandlari Qozog‘istondagi institutlarda o‘qirdi. Biz bobom bilan shaharga tushsak, albatta, uning uyiga borardik. Mehmon bo‘lardik. Keyin Roman otamizni yo‘qlab bozorga o‘tardik. Bobom ikkalasining gaplari hech tugamas, bu vaqtda men rasta ustidagi chaq-chuglarning ancha barakasini qochirardim. Gohida yaylovga ketardik, Xudoyberdi otamiz bizni barra qo‘sh bilan siylardi.

Xullas, ular bilan qozoni bo‘lak, tashvishi bir oila edik. Ular bobomni “og‘a” derdi. Toki, barchasi bu dunyodan o‘tib ketgunicha shunday bo‘ldi. Endi eslasam, ularning shevalari

biznikidan farq qilardi. Uylariga borganimizda ham ayollarni boshqa milliy kiyimlarda ko‘rardik. Qisqasi, biz yoshimiz ulg‘aygunicha Roman otamiz tojik, Ermoxon otamiz qozoq, Xudoyberdi otamiz turkman ekanini va ular bobom bilan tug‘ishgan aka-uka emasligini sezganimiz ham.

Keyinchalik, onamning aytishicha, bobomning otasi Ollanazar bobo yo‘qchilik zamonlarida ularni o‘z tarbiyasiga olib voyaga yetkazgan ekan. Har qalay bobomning bir qozondan 36 aka-uka ovqat yerdik, degan gaplarini hali-hanuz eslayman. Tariximizda bunday holatlar ham kam emas. Zero, bolaning begonasi bo‘lmaydi degan ibora jamiyatimizda bugun paydo bo‘lmagan. Urush yillari xalqimiz millati, dini, kelib chiqishiga qaramay, minglab bolalarni bag‘riga olganining o‘zi buni isbotlaydi.

Ona zaminimizda azaldan turli millat vakillari bir-biri bilan do‘st, qadrdon bo‘lib, hamjihatlikda yashab kelayotganini isbotlaydigan, odamini hayajonga soladigan, to‘lqinlantiradigan, shuningdek, g‘urur va iftixorga to‘ldiradigan yuqoridagi kabi misollarni ko‘plab keltirish mumkin.

Turli millatga mansub bo‘lsalar-da, bir mahallada o‘sib, bir maktabda o‘qib, bir jamoada mehnat qilib tug‘ishgandan ziyoda bo‘lib ketganlar qancha. Ona tilida emin-erkin

muloqot qilsa, san‘ati, madaniyati, qadriyatlari, e‘tiqodi va an‘analarga sadoqatini namoyon eta olsa, o‘zini hech kimdan kam his qilmasa, har qanday millat vakili uchun bundan ortiq saodat bormi?

Yurtimizda esa ana shunday muhit yaratilgan. O‘zbekiston dunyo miqyosida bag‘rikeng yurt sifatida e‘tirof etilishi bejiz emas. Vatanimizda bugungi kunda 130 dan ortiq millat va elat hamda 16 ta diniy konfessiya vakillari tinch-totuv, ahil-inoq, hamjihat bo‘lib yashamoqda. 157 ta milliy-madaniy markaz va 38 ta do‘stlik jamiyati faoliyat ko‘rsatmoqda.

Davlatimiz rahbarining “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘rtiz to‘rt yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarorida ham Mustaqillik bayramiga bag‘ishlangan chora-tadbirlarni amalga oshirishda alohida e‘tibor qaratiladigan ustuvor yo‘nalishlar belgilab berilar ekan, ulardan biri sifatida ko‘p millatli va ko‘p konfessiyali jamiyatimizdagi tinchlik, o‘zaro do‘stlik va hamjihatlik muhiti bizning bebaho boyligimiz ekanini, uni asrab-avaylash va mustahkamlash barchamizning muqaddas burchimiz bo‘lib qolishi zarurligi ko‘rsatiladi.

Alohida e‘tirof lozimki, har yili Xalqlar do‘stligi kuni munosabati bilan o‘tkaziladigan festivallar, davra suhbatlari, ijodiy muloqotlar, ko‘rgazmalar, xalqaro konferensiya va boshqa madaniy-ma‘rifiy tadbirlar Mustaqillik bayrami tantanalariga ulanib ketadi. Bu esa “O‘zbekiston



**USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM
O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!**

— umumiy uyimiz” degan ezgu g‘oya jamiyatimizda hukm surayotgan millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik muhiti, tinchlik va osoyishtalikning amaliy ifodasidir.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi-ning o‘zida beshita — qozoq,



turkman, rus, ukrain, koreys milliy-madaniy markazlari mavjud. Ular 2022-yil yanvarda foydalanishga topshirilgan, barcha sharoitlarga ega “Do‘stlik uyi”da faoliyat yuritadi. Mazkur milliy-madaniy markazlar davlat tomonidan zamonaviy texnik uskunalar, musiqiy asboblarni, mebel jihozlari, milliy liboslar bilan ta‘minlangan.

Bu maskanlarda muntazam ravishda umummilliy bayramlar, festivallar, konsert va uchrashuvlar, tanqili madaniyat arboblarining chiqishlari, seminar va konferensiyalar o‘tkazilib boriladi.

Nukus shahridagi “Oqqush” majmuasida ham qoraqalpog‘, qozoq, turkman, qirg‘iz, boshqird kabi turkiy xalqlar hamda Qoraqalpog‘istondagi tumanlarining o‘tovlari tashkil etilgan. Ularida qardosh ellarimiz tarixi, madaniyati va turmush tarzi o‘z ifodasini topgan. Prezidentimiz o‘tgan yil 19-20-avgust kunlari majmuaga tashrif buyurganida “Bizning tomirimiz, taqdirimiz bir. Mana shunday tadbirlarni ko‘paytirib, birgalikda festivallar o‘tkazib, xalqlar do‘stligini

yanada mustahkamlash kerak. Milliy hunarlarni asrab, yosh avlodga yetkazish, bu bo‘yicha shogirdlar tayyorlash, bolalar uchun o‘z ona tilida kitoblar chiqarishni kengaytirish zarur”, degan edi. Darvoqe, majmuadagi eng katta o‘tovning diametri 42, balandligi 22 metr, shu bois, Ginesning rekordlar kitobiga kiritilgan.

— Qoraqalpog‘iston Respublikasida 300 mingga yaqin qozoq millatiga mansub aholi yashaydi,

— deydi Qoraqalpog‘istondagi qozoq milliy-madaniy markazi rahbari Asqar Umbetayev. — Do‘stlik haftaligiga katta tayyorgarlik ko‘rdik. Asosiy tadbirlar Nukus shahri, Ellikq‘ala va Taxtak‘o‘pir tumanlarida o‘tkaziladi. Bu tadbirlarda Qoraqalpog‘istondagi barcha milliy-madaniy markazlar ishtirok etadi. Albatta, oljanoib maqsad yo‘lida bir hafta davomida o‘tkaziladigan festival tadbirlari xalqimizni yanada birlashtiradi, hamjihatligimizni mustahkamlaydi.

Shu o‘rinda alohida ta‘kidlash lozimki, milliy madaniyatlar, san‘at va qadriyatlarini nafaqat saqlash, balki keng targ‘ib qilish

hamda rivojlantirish uchun yurtimizda barcha sharoitlar yaratilgan. Misol uchun, qozoq xalqining oqinchilik an‘anasi tarixi uzoq yillarga borib taqaladi. Uni bugun yoshlarimiz ham o‘rganmoqda. Yaqinda yosh oqinlarimiz Qirg‘iziston va Mo‘g‘ulistonga borib san‘atini namoyish etib qaytdi.

Hozir Qoraqalpog‘istonda 150 dan ortiq maktabda 20 mingdan ziyod farzandlarimiz qozoq tilida ta‘lim oladi. Har yili Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutida 300 nafar, Qoraqalpog‘ davlat universitetida 30 nafar kadr qozoq maktablari uchun tayyorlanadi.

Darhaqiqat, mamlakatimizdagi ta‘lim muassasalarida o‘quv-tarbiya jarayonlari o‘zbek, qoraqalpog‘, rus, tojik, qozoq, qirg‘iz va turkman tillarida olib borilmoqda, qardosh tili maktablarda o‘qiyotgan o‘quvchilar davlat hisobidan darslik va badiiy adabiyotlar bilan ta‘minlanmoqda.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 4-moddasida O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi millat va elatlarining tillari, urf-odatlari va an‘analari hurmat qilinishini ta‘minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi deb qat‘iy belgilab qo‘yilgan. Bugun mamlakatimizda yashaydigan qardosh xalqlar nafaqat o‘z ona tilida so‘zlashadi, balki o‘qiydi, ijod qiladi, uni rivojlantiradi ham.

Diyorimizning qaysi go‘shasiga bormang, yurtimizda ummguzaronlik qilayotgan turli millat vakillarining sho‘x-shodon kuy-qo‘shiqlari yangrayotgan tantanalarga guvoh bo‘lasiz. Mamlakatimizda Xalqlar do‘stligi kunining keng nishonlanishi ham azaldan ardog‘imizda bo‘lgan do‘stlik deb ataluvchi muqaddas rishatning yanada mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda.

“Og‘izbirlilikdan ayirmasin” degan gap bor qoraqalpog‘da. Zero, taraqqiyotimiz asosi bo‘lib kelayotgan eng muhim omil bu yurtimizdagi turli millat vakillarining maqsadlari mushtarakligi, do‘stligi, birdamligi va hamjihatligidir.

TURFA QALBLAR TUTASHGAN MAKON

Mahallamizda Sveta opa degan qo‘shnimiz bor. Qanday tadbir bo‘lmasin — to‘yimi, ma‘rakami, opa bosh-qosh. Ayniqsa, Navro‘z bayramiga rosa “jon kirgizadi”. Qizaloqlarga milliy liboslar kiygizib, sochlarini ziynat bilan o‘rib, sahnaga olib chiqadi. Milliy qo‘shiqlar aytiradi, raqsga undaydi. O‘sha qadrli yangamiz — Svetlana Ivanova haqqida ba‘zilar juda ko‘p narsani bilmaydi. U qayerdan kelgan, millati nima? Bizni hech qachon qiziqtirmagan. Biz uchun bu muhim emas. Chunki u o‘zimizning Sveta opa. Farzandlarimizning sevimli momosi, bir so‘z bilan aytganda, oilamiz a‘zosi.

Asli O‘zbekiston — opa timsolidagidek ko‘p millatli xalqimiz uchun katta bir oila. Bu O‘zbekistonning o‘ziga xos yuzi, dunyoga namuna modeli bo‘la oladigan bag‘rikenglik fazilati. Bizda millatlar, tillar, urf-odatlar turli bo‘lishi mumkin, ammo vatan tuyg‘usi, sadoqat, mehr, ahillik umumiydir.

Bugun mamlakatimizdagi barcha millat va elat vakillari emin-erkin, o‘zaro totuv yashashi uchun barcha shart-sharoit yaratilgan. Yangi O‘zbekistonning jozibali va bardavom islohotlarida ham jamiyatimizda millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik muhitini yanada mustahkamlash ustuvor vazifalardan biri etib belgilangan. Bu an‘analarni har yili o‘ziga xos bayram sifatida keng nishonlab kelinayotgan 30-iyul — Xalqlar do‘stligi kunida yanada yaqqolroq namoyon bo‘ladi.

Prezidentimizning 2017-yil 19-maydagi “Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni ana shu hamjihatlikni yangi bosqichga olib chiqdi. Jumladan, Respublika baynalmilal markazi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasiga aylantirildi. Qo‘mita zimmasiga jamiyatda millatlararo totuvlik va bag‘rikenglikni

ta‘minlash, tinchliksevar siyosatni izchil amalga oshirish vazifasi yuklandi. Qo‘mita binosi yonida millatlar va elatlarini hamjihatlikka chorlovchi Do‘stlik bog‘i barpo etilgani esa ezgu tashabbuslarning amaliyotga ko‘chishi ramzi bo‘ldi. Bugun qo‘mita huzuridagi 157 ta milliy-madaniy markaz va 38 ta do‘stlik jamiyati har bir millat va elat vakilining tili, madaniyati, urf-odatlarini o‘rganish va rivojlantirishga o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda. O‘tgan davrda milliy-madaniy markazlarning moddiy-texnik bazasini yaxshilash maqsadida davlat tomonidan zamonaviy texnik uskunalarni, musiqiy asboblarni, mebel jihozlari, milliy liboslar bilan ta‘minlandi. Ularning faoliyati uchun eng ko‘rkam binolar ajratib berildi. Bu maskanlarda umummilliy bayramlar, festivallar, konsert va uchrashuvlar, tanqili madaniyat arboblari chiqishlari, seminar va konferensiyalar muntazam o‘tkazib kelinayapti. Bugun “O‘zbekiston — umumiy uyimiz” ezgu g‘oyasi barcha milliy-madaniy markazlar shoriga aylandi. Bu jamiyatimizda hukm surayotgan millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik muhiti, tinchlik va osoyishtalikning amaliy ifodasidir.

Albatta, xalqimizning bag‘rikengligi yurtimizda asrlar davomida shakllangan barchaga teng, samimiy, do‘stona munosabatda bo‘lish qadriyat darajasiga ko‘tarilgani bilan

bog‘liq. Xalqimiz azaldan o‘zga ellar bilan bordi-keldi, quda-andali bo‘lgan bag‘rikeng el. Bir necha yillar chegaralar yopilgichi bois, o‘zga yurtdan kelin bo‘lib tushganlar hatto o‘z yaqinlari ta‘ziyasiga ham bora olmagan holatlar ko‘p bo‘ldi. Bugun bir daryo suvidan ichib kelgan qadrdon qo‘shnilar — Tojikiston, Turkmaniston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Afg‘oniston va boshqa xalqlar bilan yana

Keyingi yillarda ushbu yo‘nalishdagi islohotlar, qonunchilikning takomillashtirilishi natijasida mana shunday notenglikka barham berildi. Ko‘plab yurtdoshlarimizga fuqarolik berilib, ular vatanimizning teng huquqli fuqarolariga aylandi.

— Taqdir taqozosi bilan 1989-1996-yillarda Qozog‘iston Respublikasida yashab, mehnat qilishimga to‘g‘ri kelgan, — deydi Samarqand



bordi-keldi qilyapmiz, qiz olib, qiz beryapmiz, munosabatlar joyida. Bunga esa yurtimizda yaxshi qo‘shnichilik, millatlar, xalqlar o‘rtasida tinchlik, totuvlik, bag‘rikenglik tamoyilini vaqtida keng joriy etilgani asos bo‘ldi.

Yana bir og‘riqli muammo — yaqin-yangacha fuqarolik maqomi bilan bog‘liq muammo ham bor edi. Shu yerda yashayotgan, ammo turfa sabablar tufayli O‘zbekiston fuqarosi degan sharafiga munosib ko‘rilmagani ko‘p edi.

shahrida yashovchi Ismoil Aliyev. — Yurtimizga qaytib kelganimdan so‘ng mehnat faoliyatimni davom ettirdim. Hozir ikki farzandim bor. Oilamdan ham, ishimdan ham ko‘nglim to‘q. Vatanimizda tinch, farovon yashayapman. Uzoq yillar ko‘nglimda bir armon bor edi — shu yurt farzandi bo‘la turib, O‘zbekiston fuqarosi emas edim. 2017-yil ana shu armonim ushaldi. Bugun qo‘lmda O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi pasporti bor. Bu — vatan ishonchi. Buni

oqlash uchun kelgusida yurtim ravnaqiga hissa qo‘shishga butun borlig‘imni bag‘ishlayman.

Mamlakatimizda turli millat vakillariga teng ta‘lim imkoniyati yaratilayotgani inson huquqlariga berilgan yuqori e‘tiborning yorqin ifodasidir. Davlat ta‘lim muassasalarida o‘quv-tarbiya jarayonlari 7 tilda olib borilmoqda, qardosh tili maktablarda tahsil olayotgan farzandlarimiz davlat hisobidan darslik va badiiy adabiyotlar bilan ta‘minlanmoqda. O‘zbek, qoraqalpog‘, rus, tojik, qozoq, qirg‘iz va turkman tillarida ta‘lim berilishining o‘ziyoy yurtimizdagi bag‘rikenglik va insonparvarlik siyosatining yorqin ko‘rinishi bo‘lib, bu ta‘lim sohasidagi ijtimoiy kafolatning amaliy namunasini hamdir. Bugun ana shunday ta‘limdan bahramand bo‘lib, kasbiy kamolotga yetib, el hurmatidagi kabi egalari bo‘lganlar tayyorlanadi.

Ularidan biri Paxtachi tumanidagi o‘qituvchi — “Do‘stlik” ordeni sohibasi Olga Stepanova bo‘lib, umumiy uyimiz — O‘zbekiston ravnaqiga hissa qo‘shib kelayotgan noyob kadrlardan.

— Prezidentimizning “O‘zbekistonimizning yer osti va yer usti boyliklari ko‘p. Lekin bizning eng katta kuchimiz, bebaho boyligimiz bu — yagona, ahil oila bo‘lib yashayotgan ko‘pmillatli xalqimizdir”, degan ibratli so‘zlari doim menga kuch bag‘ishlaydi. Shu yurtda qadr topdim. O‘z kasbim ortidan jonajon vatanimizning, ona xalqimizning yuksak e‘tirofi va e‘zoziga sazovor bo‘ldim. Bundan baxtiyorman. Bugun Paxtachi tumanidagi 21-umumiy o‘rta ta‘lim maktabida rus tili va adabiyoti fanidan yoshlarga saboq beraman. Yosh avlodning har jihatdan yetuk kamolini ko‘zlab mamlakatimizda ta‘lim sohasida keng qamrovli islohot va yangilanishlar amalga oshirilmoqda. Umumta‘lim maktablari zamonaviy, ko‘rkam qiyofaga keltirilib, eng qulay shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Bizning maktabimiz ham rus tili va adabiyotiga oid adabiyotlar, davriy nashrlar hamda

boshqa moddiy-texnik vositalari bilan to‘liq ta‘minlangan. Shunga munosib tarzda bizdan talab qilinadigani izlanish, o‘z ustimizda ishlash, kasbiy malaka va mahoratimizni oshirgan holda farzandlarimizni zamonaviy bilimlarni mukammal egallagan, yurt etariga munosib o‘g‘il-qizlar qilib kamol topitirishda munosib hissa qo‘shamiz, — deydi Olga Stepanova.

Yana bir jihat, har bir fuqaro — millat, til va madaniyatidan qat‘i nazar, axborot va yangiliklarni teng darajada olish huquqiga ega. Bu faqat demokratik jamiyatning emas, balki inson huquqlarini ta‘minlashning ham asosiy ko‘rsatkichidir.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston axborot makonida kuzatilayotgan muhim o‘zgarish tillar xilma-xilligining jadal o‘lchi bo‘lishidir. Ayni paytda yurtimizda faqat xorijiy tillarda axborot tarqatishga ixtisoslashgan 283 ta ommaviy axborot vositasi faoliyat yuritmoqda. Ularning 131 tasi 2017-yildan keyin tashkil etilgan. Shu bilan birga, o‘zbek va boshqa tillarda materiallar e‘lon qiluvchi 1517 ta OAV mavjud bo‘lib, shulardan qariyb 80 foizi — 1203 tasi so‘nggi sakkiz yilda ochilgan. Bu esa mamlakatda axborot siyosati qanday darajada liberallashganini, turli til va madaniyatlarga nisbatan qanday bag‘rikeng munosabat shakllanayotganini yaqqol namoyon etadi. O‘zbekiston axborot maydoni bugun nafaqat o‘zbek tili, balki rus, ingliz, tojik, qozoq, qoraqalpog‘, nemis, turk va boshqa tillarda faoliyat yuritayotgan OAVlar uchun ham ochiq. Mazkur jarayon xalqlar do‘stligi va tillar tengligini ta‘minlashga qaratilgan islohotlarning amaliy natijasidir.

Ha, bugun millatlararo hamjihatlikni asrab-avaylash, poydevorini mustahkamlash kelajak avlod uchun eng ulug‘ merosdir. Zero, hamjihatlik kuchli qurol, bag‘rikenglik esa insoniylikning oliy namoyonidir. Zotan, bugungi O‘zbekiston faqat geografik hudud emas, balki turfa millatlarning qalbi bir nuqtada kesishgan, orzu va intilishlari mustahkam bo‘lgan muqaddas zamin.

Suhrat NORMURODOV,
jurnalist

2025-yilning birinchi yarim yilligi yakunlariga ko‘ra, eksport hajmi o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 33 foizga o‘shib, 17 milliard dollarga yaqinlashdi. Yil boshidan buyon eksportyorlar qatoriga 1557 ta mahalliy korxona va kompaniya qo‘shildi, ularning hissasiga 650 million dollarlik eksport tovarlari to‘g‘ri keldi.

O‘ZBEKISTON IQTISODIY TARAQQIYOTINING ISTIQBOLLARI O‘TA IJOBIY

BU NIMALARDAN DALOLAT BERADI?



Durbek AHMEDOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
deputati, iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

Boshlanishi 1-betda

Bunga to‘xtalishdan oldin ta’kidlash o‘rinliki, maslahatlashuvlar jarayoni ushbu nufuzli xalqaro tuzilma faoliyatini belgilovchi uning asosiy yulidagi hujjati — Xalqaro valyuta jamg‘armasi (XVJ) kelishuvi asosida o‘tkazildi. Odatda hujjatga asosan, har yili Xalqaro valyuta jamg‘armasi va har bir a‘zo mamlakat o‘rtasida maslahatlashuv o‘tkaziladi. Bu jarayon doirasida tashkilotning bir guruh xodimlari mamlakatimizga tashrif buyurib, iqtisodiy hamda moliyaviy vaziyatni tahlil qiladi va rasmiylar bilan iqtisodiy siyosat muhokama etiladi. Maslahatlashuvlar mamlakatning iqtisodiy siyosatini baholash, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavf va muammolarni aniqlash uchun xizmat qiladi.

Bu galgi tahlillar natijalariga ko‘ra, yurtimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning mohiyati to‘g‘risidagi asosiy xulosa shunday bo‘ldi: O‘zbekiston iqtisodiy taraqqiyotining istiqbolli o‘ta ijobiy. E‘lon qilingan hujjatga muvofiq, O‘zbekistonning iqtisodiy ko‘rsatkichlari yuqorilgicha qolmoqda. Barqaror o‘shish sur‘atlari, konsolidatsiyalashgan budget hamda joriy operatsiyalar hisobi taqchilligining qisqarishi va xalqaro zaxiralarning yetarli darajasi borligi shular jumlasidan.

Jamg‘arma mutaxassislarining fikricha, tarkibiy islohotlarning muvaffaqiyatli va samarali amalga oshirilishi mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning qulay istiqbollari to‘g‘risida xulosa chiqarish imkonini beradi. XVJning asosiy ssenariysiga muvofiq, global savdo siyosatining yuqori darajadagi noaniqligiga qaramay, mamlakatimizda kelgusi yillarda real yalpi ichki mahsulotning o‘shishi barqaror yuqori darajada saqlanib qolishi prognoz qilinmoqda. Ushbu jarayonlar keyingi yillarda olib borilayotgan iqtisodiy ochiqlik, sanoatlashtirish va faol investitsiya siyosati, iqtisodiyotning istiqbolli tarmoqlarini rivojlantirish va eksport salohiyatini shakllantirishni qo‘llab-quvvatlash natijasidir.

Ta’kidlash joizki, olib borilayotgan islohotlar mamlakatni uzoq muddatli barqaror rivojlantirish uchun mavjud ichki resurs va zaxiralardan kelib chiqib, amalga oshirilmoqda. Izzchil bozor islohotlari siyosati yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida davlat tomonidan manzilli qo‘llab-quvvatlash vositalari va tadbirkorlik tashabbusi imkoniyatlarini mohirona uyg‘unlashtirish imkonini bermog‘da.

Investitsiya loyihalari qiymati qariyb 8 barobarga oshdi

So‘nggi yillardagi ochiqlik siyosati, barqaror iqtisodiy o‘shish strategiyasi natijasida mamlakatimizga xalqaro miqyosda ishonch tobora ortyapti. Buning samarasida yurtimizga kiritilayotgan xorijiy sarmoyalari hajmi izchil o‘shib bormoqda. 2017-2024-yillarda o‘zlashtirilgan xorijiy investitsiyalarning umumiy hajmi 113 milliard dollardan oshdi. Shu bilan birga, ularning sakson foizdan ortig‘i to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar hissasiga to‘g‘ri kelishini ta’kidlash lozim. Sanoatning yetakchi tarmoqlari va yoqilg‘i-energetika kompleksida iqtisodiy faollik kuzatilmoqda, bu esa mamlakatning deyarli barcha hududlarida sanoatlashtirish jarayonlarini jadallashtirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatyapti.

Xitoy, Rossiya, Germaniya, Turkiya, Saudiya Arabistoni, Gollandiya, AQSH, Buyuk Britaniya va Yevropa Ittifoqi davlatlari bilan investitsion hamkorlikni kengaytirishga alohida ahamiyat berilayotgan investitsiyalar hajmini oshirish bilan bir qatorda ilg‘or texnologik yechimlar va ekspertiza, boshqaruv usullarini jalb qilish, ishlab chiqarishni mahalliyashtirish, istiqbolli tarmoqlar va hududlarning eksport salohiyatini mustahkamlashga xizmat qilayotir. Binobarin, jalb etilayotgan investitsiya resurslari asosan mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini texnologik jihatdan qayta jihozlash va modernizatsiyalash hamda ilgari mavjud bo‘lmagan yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etishga yo‘naltirilmoqda.

So‘nggi 8 yil mobaynida investitsiya dasturlari doirasida qariyb 100 milliard dollarlik 96 mingdan ziyod loyiha ishga tushirilib, 1,8 millionta yangi ish o‘rni yaratildi. O‘zbekistonning faol investitsiya siyosati natijasida 2024-yilda 2017-yilga nisbatan ishga tushirilgan investitsiya loyihalari qiymati qariyb 8 barobarga, ish o‘rinlari soni esa 2,6 barobarga oshdi.

Investitsiya siyosati haqida gapirganda, davlatimiz rahbarining bu jarayonga shaxsan aralashuvi omilini ta’kidlash o‘rinli. Zero, oliy darajadagi tashrif va tadbirlarda joriy yil boshidan buyon 75 milliard dollarlik 366 ta investitsion kelishuvga erishildi. Xususan, oliy darajadagi davlat tashriflari yakunlari bo‘yicha 2025-yilning o‘tgan davrida umumiy qiymati qariyb 45 milliard dollarlik 222 ta loyiha bo‘yicha “yo‘l xaritalari” tasdiqlandi.

Bundan tashqari, to‘rtinchi Toshkent investitsiya forumi doirasida 144 ta qo‘shma loyihani amalga oshirishga yo‘naltirilgan 30 milliard dollardan ortiq sarmoya kiritish bo‘yicha kelishuvlarga erishildi. Joriy yilning aprel oyida Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan “INNOPROM. Markaziy Osiyo” xalqaro ko‘rgazmasida erishilgan 43 ta investitsion kelishuv doirasida mamlakatimiz sanoat sektoriga qo‘shimcha 1 milliard dollar jalb qilish ko‘zda tutilgan.

Yangi salohiyatli investorlarni jalb qilish maqsadida so‘nggi yillarda xalqaro investitsiya hamjamiyatlarini O‘zbekistonda qo‘shma loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlari to‘g‘risida xabardor qilish bo‘yicha tadbirlar o‘tkazish faol amalga oshirilmoqda. Xususan, joriy yilda 13 ta xorijiy davlatda “O‘zbekiston investorlari kunlari” o‘tkazilib, ularda 700 ta nufuzli xorijiy kompaniya vakillari ishtirok etdi.



Ana shunday tadbirlarda xorijiy sarmoyadorlar e‘tiboriga 6 milliard dollarlik 200 dan ziyod investitsiya loyihasi taqdim etildi.

Eksport yiliga 12-23 foiz atrofida o‘syapti

O‘zbekistonning zamonaviy sanoat siyosatining muhim elementlaridan biri yuqori sifati va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish, tayyor mahsulotlar va butlovchi qismlar importini kamaytirishdan iborat. 10 mingga yaqin loyiha kiritilgan mahalliyashtirish dasturiga muvofiq, 2020-2024-yillarda qariyb 300 trillion so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarilib, qariyb 25 milliard dollarlik joriy import o‘rni qoplangan. Mahalliyashtirish dasturi ilgari import qilingan tovarlarning yangi ishlab chiqarishlarini tashkil etish, sanoatning tarmoq tuzilishini o‘zgartirish, keng turdagi mahsulotlar va xizmatlarning tashqi ta’minotiga qaramligini kamaytirish imkonini berdi.

Eksportga yo‘naltirilganlikni shakllantirish O‘zbekistonni sanoatlashtirish bo‘yicha belgilangan rejalarni amalga oshirishda muvaffaqiyatga erishishning asosiy shartlaridan biri bo‘ldi. 2017-2024-yillarda eksportning umumiy hajmi 132 milliard dollardan oshdi. E‘tiborsiz, ushbu davrda mamlakatimiz eksportining o‘rtacha yillik o‘shish sur‘ati 12-23 foizni tashkil etdi. Eksportchilarni tizimli va manzilli qo‘llab-quvvatlash natijasida birgina 2024-yilning o‘zida mahalliy mahsulotlar eksporti geografiasini 55 ta davlatga kengaytdi, so‘nggi 8 yildagi bu kabi kengayishlar hisobiga esa 186 taga yetdi. Yana bir e‘tirofga loyiq natija: o‘tgan yili eksportchi korxonalar soni 3 mingdan ziyodga ko‘payib, ularning umumiy soni 7,5 mingga yaqinlashdi.

Birgina yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar eksporti ulushining ortishi hisobiga



2024-yilda ularning tashqi bozorlarga yetkazib berilishi 1 milliard dollarga oshdi.

Yangi istiqbolli bozorlarga chiqish, o‘z navbatida, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini sezilarli darajada oshirishni va ularning xalqaro standartlarga muvofiq bo‘lishini talab qiladi. Shu maqsadda birgina “GSP+” dasturi doirasida 5 mingdan ortiq korxonada Global GAP, Organic, OEKO-TE, BSCI, CE tizimi bo‘yicha mahsulotlarimizni markirovkalash sertifikatlarini olish va ISO standartlariga o‘tish bo‘yicha kompleks tashkiliy-texnik chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bu, o‘z navbatida, o‘tgan yilning o‘zida Yevropa Ittifoqi mamlakatlariga 1,4 milliard dollarlik 617 turdagi mahsulot eksportini qo‘shimcha ravishda ta’minlash imkonini berdi.

Mahsulot sifatiga ko‘proq talabchan standartlar va texnologik jarayonlarga o‘tish



bo‘yicha faoliyat — yangi bozorlarda mutlaqo o‘zgacha sifatadagi mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish bo‘yicha maqsadlarga erishish imkonini beradi. Rivojlangan mamlakatlar bozorlariga eksport qilinayotgan tovarlar hajmining yildan yilga ortib borayotgani tanlangan strategiyaning to‘g‘riligini tasdiqlaydi. Misol uchun, eksport geografiasini kengaytirish va bozor konyunkturasiga moslik hisobiga O‘zbekiston meva-sabzavot mahsulotlarining sotuv narxlari o‘tgan yilning o‘zida o‘rtacha 14 foizga oshdi.

Mamlakatimiz zamonaviy iqtisodiy rivojlanishining industrial trendi bir qator tarmoqlarda texnologik siljishni ta’minlab, eksport nomenklaturasi jadal evolyutsiyasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Agar yaqindagina O‘zbekiston paxta yakkahokimligi ostidagi mamlakat sifatida tasavvur qilingan bo‘lsa, hozir



“

SO‘NGGI 8 YIL
MOBAYNIDA
INVESTITSIYA
DASTURLARI
DOIRASIDA QARIYB
100 MILLIARD
DOLLARLIK
96 MINGDAN ZIYOD
LOYIHA ISHGA
TUSHIRILIB,
1,8 MILLIONTA YANGI
ISH O‘RNI YARATILDI.
O‘ZBEKISTONNING
FAOL INVESTITSIYA
SIYOSATI NATIJASIDA
2024-YILDA 2017-YILGA
NISBATAN ISHGA
TUSHIRILGAN
INVESTITSIYA
LOYIHALARI QIYMATI
QARIYB
8 BAROBARGA, ISH
O‘RINLARI SONI
ESA 2,6 BAROBARGA
OSHDI.

vaziyat mutlaqo boshqacha. Vaholanki, yaqin o‘tmishda paxta mahsulotlari mamlakat eksport nomenklaturasida deyarli yagona yetakchi mahsulot bo‘lib, paxta xomashyosi eksportida mutlaq ustunlikka ega edi.

Shu nuqtayi nazardan, Xalqaro valyuta jamg‘armasi mutaxassislarida paxta tolasi eksporti ulushi 2021-yildan boshlab YIMga nisbatan 0,2 foizdan nol ko‘rsatkichgacha pasaygani qiziqish uyg‘otadi. Bugungi kunda O‘zbekiston tobora ko‘proq yuqori texnologiyali mahsulotlarni eksport qilmoqda va 2024-yilga kelib ularning nomenklaturasi 4 ming pozitsiyaga yetdi.

Xususan, o‘tgan yili 2017-yilga nisbatan xomashyo tovarlari eksporti 22 foizga kamaygan bo‘lsa, tayyor mahsulotlar eksporti ulushi 3,3 barobar, yarim tayyor mahsulotlar eksporti 4,4 barobar, xizmatlar eksporti 2,9 barobarga oshgan.

Mahsulotlarimiz jahon bozorlarida milliy brend sifatida tanilaypti

O‘zbekistonda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar yildan yilga tanilib, milliy brendga aylanaypti, xorijlik iste’molchilar orasida ishonch va mashhurlikka ega bo‘lmoqda. O‘tgan yili 300 ga yaqin mahalliy korxona mahsulotlari “Alibaba” “Wildberries”, “OZON” kabi mashhur elektron tijorat platformalarida ro‘yxatdan o‘tkazildi. Natijada ushbu korxonalar mahsulotlarining eksport savdosi hajmi 680 million dollarga yetdi.

Bundan tashqari, milliy brendlar eksportini rag‘batlantirish dasturlari hisobiga 39 ta brend xorijiy bozorlarga chiqdi va bu 461 million dollar daromad olish imkonini berdi. O‘tgan yili mingga yaqin eksportyorlarga moliyaviy



preferensiyalar berish va qo‘llab-quvvatlash hajmi 439 milliard so‘mga yetdi, natijada ushbu korxonalarining eksport ta’minoti 2,1 milliard dollarni tashkil etdi.

2025-yilning birinchi yarim yilligi yakunlariga ko‘ra, eksport hajmi o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 33 foizga o‘shib, 17 milliard dollarga yaqinlashdi. Yil boshidan buyon eksportyorlar qatoriga 1557 ta mahalliy korxona va kompaniya qo‘shildi, ularning hissasiga 650 million dollarlik eksport tovarlari to‘g‘ri keldi.

Shu bilan birga, xomashyo eksportidan tayyor yuqori texnologiyali mahsulot va xizmatlar tomon o‘tishning barqaror jarayoni davom etayotganini ta’kidlash lozim. Turizm, transport, qurilish va IT xizmatlarining xalqaro bozorga chiqish tendensiyasi davom etmoqda. Ayni yo‘nalishdagi yildan yilga kengayish hisobiga ularning o‘shish sur‘atlari ba’zan tayyor mahsulotlar savdosining o‘shish sur‘atlaridan oshib ketmoqda.

Umuman olganda, mamlakatimizda xorijiy kapitalni jalb qilish orqali aniq eksportga yo‘naltirilgan sanoat rivojlanishining strategik muhim masalalarini hal qilish uchun institutsional muhit shakllanayotganini ta’kidlash lozim. Buning uchun shaxsan Prezidentimiz rahbarligida tegishli vazirlik, ushbu kompleks masalalarga mas’ul bo‘lgan turli davlat idoralari hamda davlat va xususiy sektor hamkorligiga ko‘maklashuvchi nodavlat tashkilotlar tashkil etildi.

Mamlakatimizda investitsiya va ishblarmonlik muhitini takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Xorijiy investorlar kengashi faoliyat boshladi. Ushbu organ O‘zbekiston hukumati va yurtimizda biznes yuritayotgan yoki investitsiya kiritayotgan investorlar, shu jumladan, xalqaro moliya institutlari o‘rtasida to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqot uchun institutsional platforma vazifasini o‘tayapti. Kengashning maslahat-kengash organi sifatidagi faoliyati iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishni kengaytirish va ilg‘or xalqaro tajribani hisobga olgan holda sifati investitsiya muloqotini tashkil etishga samarali ko‘maklashmoqda.

Investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil qilish maqsadida shu yil 18-iyulda Prezidentimizning “Xorijiy investorlar kengashining navbatdagi majlisi doirasida erishilgan kelishuvlarning ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Qaror majlis ishtirokchilari tomonidan ilgari surilgan tashabbus va takliflar, shuningdek, Kengash kotibiyati faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarning tizimli amalga oshirilishini ta’minlashni nazarda tutadi.

Tadbirkorlik erkinlashmoqda

Muxtasar aytganda, mamlakatimizda ta’sirchan institutsional muhitni shakllantirish bilan bir qatorda jadal industrial rivojlanishni ta’minlashning qonunchilik bazasini takomillashtirish, investitsiya jarayonlarini faollashtirish hamda tarmoqlar va hududlarning eksport salohiyatini kengaytirish bo‘yicha izchil ishlar olib borilmoqda.

Xususan, so‘nggi yillarda davlatning biznesni tartibga solish bo‘yicha 500 dan ortiq funktsiyasi bekor qilindi, 70 ga yaqin funktsiya davlat-xususiy sheriklik va autsorsing asosida xususiy sektorga o‘tkazildi. Mamlakatimizda ishblarmonlik muhitini takomillashtirish va tadbirkorlik muhitini soddallashtirish maqsadida 72 ta litsenziyalanadigan faoliyat turi va 40 ta ruxsatnoma bekor qilindi. Ushbu jarayon O‘zbekiston parlamenti a’zolarining diqqat markazida va bevosita ishtirokida o‘tyapti.

O‘zbekiston investitsiya va ishblarmonlik muhitidagi ijobiy o‘zgarishlar xalqaro reyting agentliklari va tashkilotlar tomonidan ijobiy baholanmoqda. Xususan, Iqtisodiy hamkorlik



Axmed REYMOV,
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti rektori, akademik

Bugungi globallashuv jarayonida har bir davlat o‘zining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotini barqaror asosda ta’minlashni ustuvor vazifa deb biladi. Xususan, ko‘p millatli jamiyatlarda millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik va ijtimoiy barqarorlik taraqqiyotning eng muhim ustunlaridan biridir. Shu ma’noda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “O‘zbekiston — ko‘p millatli ahil oila” g‘oyasi bugungi kunda nafaqat mafkuraviy, balki amaliy, hayotiy mezon darajasiga ko‘tarildi.



Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti jamoasi ham ushbu ezu g‘oyani o‘z faoliyatining asosi sifatida qabul qilib, mamlakatimizda istiqomat qiluvchi barcha millat va elat vakillari o‘rtasida do‘stlik, tinchlik, totuvlik va o‘zaro hurmat muhitini mustahkamlashga katta hissa qo‘shib kelmoqda. Bugungi kunda universitetimizda o‘n oltidan ortiq millat va elat vakillari tahsil olmoqda. Unda qoraqalpoq, o‘zbek, rus, qozoq, tojik, tatar, koreys va boshqa millat vakillari birgalikda ilm-fan, ta’lim, sport va madaniyat sohalarida faoliyat yuritmoqda. Universitetimizda yaratilgan madaniyatlararo muloqot muhitining ijobiy samarasini talabalarining erkin fikrlashi, ochiq muloqoti va do‘stona munosabatlarida ham yaqqol ko‘rish mumkin. Universitetda barcha millat vakillariga teng sharoit yaratilgan bo‘lib, ta’lim qoraqalpoq, o‘zbek, qozoq, turkman, rus va ingliz tillarida olib boriladi. Bu esa turli millat vakillari o‘rtasida bilim olishda tenglik va qulaylikni ta’minlab, umumiy maqsad sari birgalikda harakat qilishga zamin yaratmoqda.

Universitetimizda millatlararo hamjihatlikni ta’minlash maqsadida “Millatlararo totuvlik, hamjihatlik va xalqlar do‘stligi”, “O‘zbekiston — umumiy uyimiz”, “Biz bir oila farzandlarimiz”, “O‘zbekiston — ko‘p millatli ahil oila”, “Do‘stlik kuni” kabi tadbirlar muntazam o‘tkaziladi. Shu orqali turli millatlarning madaniy merosini o‘zaro tanishtirish va targ‘ib etish an‘anasi yo‘lga qo‘yilgan. Shuningdek, universitetdagi talabalar teatri studiyalari, “Hurliman” xalq ansambli va ijodiy guruhlar faoliyatida turli millatlarning raqs, qo‘shiq va an‘analari aks etgan sahna ko‘rinishlari namoyish etiladi.

Bundan tashqari, universitetimizda har yili an‘anaviy tarzda o‘tkaziladigan “Xalqlar do‘stligi” festivali barcha millat va elat vakillarining o‘ziga xos madaniyatini bir sahnada jamlab, talaba yoshlar orasida chinakam do‘stlik va bag‘rikenglik ruhini mustahkamlamoqda. Bu yil “O‘zbekiston — ko‘p millatli ahil oila” shiori ostida o‘tkazilgan xalqlar do‘stligi festivalida respublikamizdagi milliy-madaniy markazlar, universitetning professor-o‘qituvchilari, talaba yoshlar bilan birga Namangan davlat texnika universiteti va Urganch davlat universiteti delegatsiyalari ham ishtirok etib, tadbir miqyosining kengligini ko‘rsatdi. Bu holat yurtimiz bo‘ylab yoshlar va ziyolilar o‘rtasida millatlararo do‘stlik rishtalari tobora mustahkamlanib borayotganidan dalolat beradi. Tadbirida so‘zga chiqqanlar O‘zbekiston taraqqiyotining asosi barqarorlik, tinchlik va xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik ekanini ta’kidladi. Bunday muhitda yashayotgan har bir inson o‘z salohiyatini to‘la namoyon qilib, jamiyatda faol ishtirok etadi, ertangi kunga ishonch bilan qaraydi. Festivalning eng yorqin va esda qolarli qismi, albatta, yoshlar ishtirokida bo‘lib o‘tdi. Universitet talabalari tomonidan tayyorlangan sahna ko‘rinishlari, teatr asarlari, milliy qo‘shiqlar va raqslar orqali ular do‘stlik, tinchlik va hamjihatlik kabi umuminsoniy qadriyatlarini yuksak mahorat bilan ifodaladi. Qoraqalpoq, o‘zbek, qozoq, rus, turkman va boshqa millat vakillaridan iborat talaba yoshlar yagona oiladek birlashib, o‘z madaniyatlarini, til va urf-odatlarini ko‘rsatib berdi. Bu sahnalar orqali ular nafaqat san‘at namunalari namoyish qildi, balki mustaqil O‘zbekistonning asosiy boyligi millatlararo totuvlik ekanini amalda isbotladi.



Festivaldan talaba yoshlar qalbida vatanparvarlik, insonparvarlik, o‘zaro hurmat va birdamlik tuyg‘ularini kuchaytirish, turli millat vakillarining bir-biriga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashday ulkan maqsad ko‘zlangan edi.

Biz ham iyun oyida Namangan davlat texnika universiteti taklifiga binoan 64-Xalqaro gullar festivalida ishtirok etdik. Mamlakatimizda va xorijda yashaydigan turli millat vakillarining madaniy hamkorligi va do‘stlik aloqalarini yanada

va elatlar vakillari bir maqsad yo‘lida yashab mehnat qilmoqda. Har bir millatning madaniy merosi, an‘ana va qadriyatlariga hurmat bilan qarash, ularni asrab-avaylash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Festival doirasida mehmon delegatsiyalar bilan hamkorlik aloqalari ham mustahkamlandi. Zero, “O‘zbekiston — ko‘p millatli ahil oila” festivali yoshlarni ezu g‘oyalarga yetaklovchi, yurtdoshlarimiz o‘rtasidagi ishonch, mehr va hamjihatlikni mustahkamlovchi muhim omildir. Shu bois, har bir yurtdoshimiz mamlakatimizning teng huquqli va hurmatga loyiq a‘zosi ekanini yurakdan his etib yashayapti.

Universitet rahbariyati talabalarining yashash sharoiti, ta’lim olishi va ijtimoiy muhofazasini doim nazorat qiladi. Turli millat vakili bo‘lgan talabalarining ahilligini yanada mustahkamlash uchun universitet yotoqxonalarida “Biz bir oila farzandlarimiz” shiori ostida ma’naviy tadbirlar tashkil etiladi. Shu bilan birga, universitetimizda faoliyat yuritayotgan yuzdan ortiq tyutorlar tomonidan har bir guruhda millatlararo totuvlik, vatanparvarlik, yurtga sadoqat ruhida ma’naviy-ma’rifiy ishlar olib borilmoqda. Haftaning juma kunlari esa “Ma’naviyat soati” doirasida muloqotlar tashkil etiladi. Bu muloqotlar



mustahkamlash maqsadida tashkil etilgan nufuzli tadbir ishtirokchilari orasida Qoraqalpoq davlat universiteti jamoasi o‘mi ham alohida ahamiyat kasb etdi.

Festival davomida universitetimizning iqtidorli talabalari, xususan, “Hurliman” xalq ansambli a‘zolari turli millatlarning xalq kuy-qo‘shiqlari, raqs san‘ati namunalari ijro etdi. Milliy liboslarni namoyish qilib olqishlarga sazovor bo‘ldi. Tadbir mehmonlari uchun unutilmas lahzalarni taqdim etgan bo‘chiqshilar millatlararo totuvlik va hamjihatlik g‘oyasining amaliy ifodasi bo‘ldi.

Shu bilan birga, ushbu tashrif madaniy-ijodiy hamkorlikni yanada mustahkamlashga xizmat qildi. Bu borada ikki universitet o‘rtasida talabalar almashinuvi, qo‘shma konsertlar, ilmiy-ma’rifiy uchrashuv va loyihalar tashkil etish rejalashtirildi.

Bunday tadbirlar orqali O‘zbekistonning xalqaro maydondagi ijobiy imiji ham shakllanib boradi. Zero, vatanimizda 130 dan ortiq millat

orqali talabalarda ijtimoiy faollik, millatlararo bag‘rikenglik, madaniy xilma-xillikka nisbatan hurmat tuyg‘usi shakllantirilmogda. Haqiqatan, “O‘zbekiston — ko‘p millatli ahil oila” g‘oyasi bugun shunchaki shior emas, balki har bir yurtdoshimizning hayot tarziga aylangan. Universitetimizda olib borilayotgan ishlar bu g‘oyaning nechog‘liq hayotiy va zamonaviy ekanini tasdiqlaydi.

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti jamoasi ushbu g‘oyaning hayotiy va amaliy ifodasini mustahkamlashda, yoshlarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashda, bag‘rikenglik madaniyatini rivojlantirishda doim oldingi safda bo‘lishga intiladi.

Ishonamizki, har bir yurtdoshimiz, har bir talaba yosh bu yurtini o‘zining yagona Vatani deb bilib, millati va dinidan qat’i nazar, ona O‘zbekiston taraqqiyoti uchun bor kuch-g‘ayratini safarbar etadi. Chunki biz ko‘p millatli, mustahkam, ahil va fidoyi O‘zbekiston oilasimiz.



Yetuklik ostonasida

Yangi O‘zbekistonni barpo etish, avvalo, yangi tafakkur, keng dunyoqarash va mustahkam milliy qadriyatlarga ega insonlarni tarbiyalash demakdir. Bugun faqat bilimli, tashabbuskor, mustaqil fikrlaydigan, vatanparvar va zamonaviy avlod orqali jamiyat taraqqiyotini ta’minlash mumkin. Bu yo‘lning boshlang‘ich nuqtasi esa ta’limdir.

BARQAROR KELAJAK KAFOLATI

Dunyo tajribasidan ayonki, barqaror taraqqiyotga erishgan har bir davlat, avvalo, ta’limga katta e’tibor qaratgan. Zero, ta’lim iqtisodiyot lokomotivi, fan va texnologiya asosi, intellektual salohiyatni shakllantiradigan muhim ijtimoiy institutdir. Unga kiritilgan har bir sarmoya kelajakka qo‘yilgan mustahkam poydevordir.

— Bugun Jizzax viloyatida 560 ta umumiy o‘rta ta’lim maktabi, 14 ta “Barkamol avlod” maktabi faoliyat ko‘rsatmoqda, — deydi Jizzax viloyati Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi boshlig‘i Sanobar Suyarqulova. — Ularda tahsil olayotgan 270 mingdan ziyod o‘quvchiga qariyb 24 mingga yaqin o‘qituvchi ta’lim-tarbiya bermogda. Ushbu pedagoglarimizning 45 foizi birinchi va oliy toifali. Bu, albatta, ta’lim sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi muhim ko‘rsatkichdir.

Bir necha yil avval ta’limdagi asosiy muammolardan biri sinfonalar yetishmasligi edi. Joriy yilda investitsiya dasturiga muvofiq, 3 ta yangi maktab binosi qurilmogda, 16 ta muassasada rekonstruksiya va ta’mirish ishlari bajarilmoqda. Natijada 3902 ta yangi o‘quv o‘rni yaratilib, o‘quv navbatlilik koeffitsiyenti 1,2 dan 1,1 ga tushirildi.

Shuningdek, ta’lim sohasiga xususiy sektorni jalb etish borasida ishlar izchil davom etmogda. Bu yil 2 ta xususiy ta’lim muassasasi faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Novdlat maktablar soni 17 taga, ulardagi

2025-yil 1-sentabr dan faoliyat boshlaydi. Bu pedagoglar tayyorlash tizimini amaliyot bilan bog‘lashda muhim qadam bo‘ladi.

Xorijiy til o‘qituvchilarini jalb etish borasida ham jiddiy ishlar qilinaypti. Joriy o‘quv yilida 14 nafar xorijiy mutaxassis faoliyat yuritmogda, yangi o‘quv yilida ular soni 30 nafarga yetkaziladi.

Ta’lim tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, iqtidorli yoshlarni kashf etish va ularni xalqaro maydonda raqobatdos kadr sifatida tayyorlash maqsadida tashkil etilgan Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar tizimi o‘zini oqlab, samarasini bera boshladi. Ushbu maktablar bugungi kunda mamlakat ta’lim tizimining intellektual lokomotiviga aylanayotgani soha ekspertlari tomonidan ham e’tirof etilmogda.

Jizzax viloyatidagi bunday maktablar faoliyati natijasi ham buning yaqqol isbotidir. Joriy o‘quv yilida mana shunday ta’lim muassasalarida o‘qiydigan jizzaxlik o‘quvchilarning bir necha nafari jahonning eng nufuzli universitetlariga to‘liq yoki qisman grant asosida qabul qilindi.

Misol uchun, Jizzaxdagi Prezident maktabining 11-sinf o‘quvchisi Muhammad Suyunov AQSHning bir qator oliygothlaridan jami 1 million dollarga yaqin grantlar yutib oldi. Ular orasida Willamette University, Western New England University, University of Nebraska-Lincoln, University of



o‘quvchilar soni esa 1945 taga yetkaziladi. Maktabgacha ta’lim qamrovini 81 foizga yetkazish maqsadida 58 ta oilaviy, 5 ta xususiy va davlat-xususiy sheriklikka asoslangan 5 ta maktabgacha ta’lim tashkiloti ochiladi.

Ta’lim sifati, birinchi navbatda, o‘qituvchining bilimi, malakasi va fidoyiligi ta’ayun holida oshadi. Pedagoglarni moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash maqsadida maktab direktorlari va o‘rinbosarlarining oylik maoshlari tegishli ravishda 20 va 15 foiz oshirildi. Yangi o‘quv yilidan ularning oyliklari 7-10 million so‘mgacha yetishi belgilandi.

Pedagog kadrlar tayyorlashga berilayotgan e’tibor ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Respublika pedagogika oliy ta’lim muassasalari ilmiy salohiyatining umumiy ko‘rsatkichi 40 foizni tashkil etadi. Ammo Jizzax davlat pedagogika universitetida bu ko‘rsatkich 32 foizdan iborat. Kelgusi maqsad ushbu ko‘rsatkichni sezilarli darajada oshirishga qaratilgan.

— Ushbu oliy ta’lim muassasasida ilm-fan, ta’lim va amaliyot integratsiyasini ta’minlash maqsadida uning tasarrufida 420 o‘rinli 1 ta maktabgacha ta’lim tashkiloti va 100 o‘rinli 1 ta umumta’lim maktabi tashkil etilyapti, — deydi Sanobar Suyarqulova. — Har ikkala muassasa ham

Massachusetts Lowell va boshqalar bor. Jizzax shahridagi 1-ixtisoslashtirilgan maktab-internati bitiruvchisi Gulmira Sa’dullayeva AQSHning 5 ta oliygothidan bir vaqtda katta miqdordagi grant yutdi.

Prezident maktabdagi bitiruvchisi Otabek Abduraimov Saudiya Arabistonidagi mashhur King Fahd University of Petroleum and Minerals universitetiga 100 foiz grant asosida qabul qilindi.

Shu maktabning yana bir o‘quvchisi Mahbuba To‘ratova esa Rossiyadagi Higher School of Economics — Saint Petersburg universitetiga 100 foiz grant asosida qabul qilindi. Shuningdek, u AQSHning Arizona State University va University of Minnesota Duluth kabi universitetlardan ham qisman grantlar yutib oldi.

Bunday misollardan ko‘rinadiki, iqtidorni ko‘ra olish, uni qo‘llab-quvvatlash va to‘g‘ri yo‘naltirish ta’lim tizimidagi eng muhim strategik vazifalardan biridir. Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarda joriy etilgan ilg‘or o‘quv dasturlari, xalqaro talablarga mos yondashuv, tillar va fanlarni chuqur o‘rgatishga qaratilgan metodika bugun yoshlarimiz global ta’lim maydonida o‘zlarini munosib namoyon etishiga xizmat qilmogda.

Farhod NE‘MATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

SAKSON YOSHDA HAM SPORT BILAN MASHG‘UL nuroniylar yoshlarga qanday o‘rnak bo‘lmoqda?

Keksalar ibratlari

Navoiy shahridagi istirohat bog‘i va “Yoshlik” ko‘li atrofidagi sport maydonchasi, vorkaut va keng yugurish yo‘lagi erda tongdan sportsevarlar bilan gavjum bo‘ladi. Bu haqda ko‘p eshitgan bo‘lsam-da, shahardan olisroqda yashaganim uchun sahar vaqti bu jarayonni kuzatishning hech imkoni bo‘lmadi.



Yaqinda istirohat bog‘iga tutash hududdagi tadbirida ishtirok etish uchun “Yoshlik” ko‘li atrofidan o‘tdim. Tong mahali bu maskan sportsevarlar bilan gavjum edi. Kimdir yugurgan, boshqasi turnikka tortilgan va yana kimdir esa ko‘l bo‘yida badantariya mashqlarini bajarmoqda.

Yoz saharining salqin havosi sport bilan shug‘ullanish uchun eng qulay vaqt. Shahar aholisi sog‘lom turmush tarziga rioya qilish uchun bundan samarali foydalanmogda. Jarayonlarni kuzatar ekanman, ko‘l bo‘yida

yugurayotgan bir guruh nuroniy otaxonlar e’tiborimni tortdi. O‘n-o‘n besh chog‘li nuroniy sport kiyimida yanada bardam ko‘rinardi. Maydonda nafaqat yoshlar, balki nuroniylar ham sport bilan shug‘ullanayotganini ko‘rib quvondim. Ko‘nglimdan hududlarda, mahallalarda sport uchun barcha sharoit va imkoniyat yaratilgani ish bera boshladi degan o‘y o‘tdi. Bu vaqtda sportchi otaxonlar yana bir aylana yugurib kelib, dam olish uchun o‘rindiqqlarga o‘tirgandi. Fursatdan foydalanib, ular bilan bir oz suhbatlashdim.

— Ko‘p qavatli uyda bekor va harakatsiz o‘tirish keksalar sog‘lig‘iga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, — deydi faxriy sportchi Murodbek Xudoyorov. — Yoshligimdan kurash bilan shug‘ullanib, musobaqalarda ishtirok etganman. Shuning uchun sportning inson salomatligiga, ayniqsa, keksalar uchun qanchalik foydali ekanini yaxshi bilaman. “Nuroniy” jamg‘armasi Navoiy viloyati bo‘limi nuroniylar ham turli sport turilariga yoki ertalabki mashg‘ulotlarga jalb qilish zarurligini aytib, tashabbus bilan chiqqanida bu jarayonda faol bo‘lib, tashkiliy ishlarni amalga oshirdi. Ko‘rib turganingizdek, har tongda shu yerda mashg‘ulotga chiqamiz va buning uchun barcha sharoit yaratilgan.

Albatta, jamiyat hayotida sportning ahamiyati juda katta. U nafaqat jismoniy sog‘liq, balki hammani bir maqsad atrofida birlashtiradigan ijtimoiy kuch hamdir. Bugun yurtimizning barcha hududlarida sportni quyi bo‘g‘indan, ya’ni mahallalardan rivojlantirish, shu orqali sog‘lom turmush tarzini shakllantirish bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Quvonarlisi, bu jarayonda nuroniylar ham faol ishtirok etib, barchaga, ayniqsa, yoshlarga namuna bo‘lmogda.

Prezidentimiz 2024-yil 25-noyabrda “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirishga faol nuroniylarni jalb etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorini qabul qilgan edi. Unda keksa yoshdagi fuqarolar uchun mos keladigan sport tadbirlarini tashkil etish, ularni jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishga jalb etish bilan bog‘liq vazifalar belgilab berilgan.

Suhbatimiz davomida nuroniylar ushbu qaror ular hayotida ijobiy o‘zgarish yasanaganini aytdi. Ya’ni mazkur qonun hujjati ijrosi doirasida viloyatdagi nuroniylar o‘rtasida “G‘ayratli keksalar” futbol musobaqasi tashkil etilibdi. Ushbu turnirda Navoiy shahar jamoasi birinchi o‘rinni qo‘lga kiritgan. Bu muvaffaqiyat ularni sport bilan shug‘ullanishga yanada ruhlantirgan.

G‘olib ABDUSALOMOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Ona tilini boyitib borish sohasida turli mamlakatlarning turli xil tajribalari bor. Arab davlatlarida, masalan, arabchalashtirish markazlari mavjud. Bu markazlarda vaqti-vaqti bilan barcha arab davlatlarining tilshunos olimlari to'planib turadilar. Ular tilda paydo bo'lgan yangi so'z va iboralarining arabcha ifodasini izlaydilar va ko'p takliflardan birini asosan yashirin ovoz berish yo'li bilan qabul qiladilar.




forsiy tilda ham she'rlar bitganlar va bu tilni ikkinchi ona tili darajasiga ko'targanlar. Biz kundalik hayotimizda yuzlab, minglab arab va fors so'zlarini ishlatamiz. "Angushona" dan to "sitora" gacha, "turbat" dan to "ilmi nujum" gacha allaqachon o'zbek lug'atiga kirib ketgan. Xalq ularni o'ziniki qilib olgan. Bizning Navoiy jahon shoirlari ichida eng ko'p so'z ishlatgan, lug'ati boy shoirlardan biri hisoblanadi. Uning tilini "arxalk" desak, o'rganib, qayta jon baxsh etmasak, Navoiyning o'zi bizniki-yu, she'ri bizniki emas degan bo'lamiz.

Navoiy o'zbekning daho shoiri deb g'ururlansak, Navoiy nomi bilan eng katta ko'chalar, bosh kutubxonalar, shahar-viloyatlarni atasak-da, o'zimiz uning she'rlarini o'qib tushunmasak, bundan og'ir ko'rgilik bormi?!

Bugun Afg'onistonda yashab turgan o'zbeklar Navoiyni bizdan ko'ra yaxshiroq tushunadilar. Negaki ular sho'ro davrini ham, til va alfibo islohotlarini ham boshdan kechirmaganlar.

Darhaqiqat, bir millatni yo'qotish uchun uni qirib tashlash shart emas, balki tili va tarixiy xotirasidan judo qilish kifoya ekan. She'riyatda til va tarixiy xotira mujassam bo'ladi. Navoiy zamonida har bir ilmiy insonga ma'lum bo'lgan Qur'on suralari, hadis so'zlari, ma'lum-mashhur rivoyatlar, payg'ambarlar qissalari, tasavvuf asoslarini bizlar o'rganmaganimiz va Navoiy tilini

“NAVOIY O'ZBEKNING DAHO SHOIRI DEB G'URURLANSAK, NAVOIY NOMI BILAN ENG KATTA KO'CHALAR, BOSH KUTUBXONALAR, SHAHAR-VILOIYATLARINI ATASAK-DA, O'ZIMIZ UNING SHE'RLARINI O'QIB TUSHUNMASAK, BUNDAN OG'IR KO'RGILIK BORMI?!



bo'lgan grammatik shaklni qisqa va lo'nda bo'lgani uchun dadil qo'lladi hamda buni xalq qabul qildi.

"Arabizm", "forsizm", "arxazim" kabi tamg'alarda mantiqning yo'qligi shuki, avvalo Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Beruniy, Ibn Sinolar o'z asarlarini arab tilida yozib, vatandoshimiz Zamaxshariy arab tilining grammatikasini yaratib, bu tilning taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shganlar va biz bu kun yashab turgan mintaqada turkiy til yonida arab va fors tili ham barobar qo'llanilgan. Bizning mumtoz shoirlarimiz deyarli barchasi

lug'atga qarab tushunsak-da, mazmun-mohiyatini, nozik san'atini anglashimiz mushkuldir.

Mumtoz she'riyatni anglash mustaqil mamlakatimizda boshlangan qadriyatlarini tiklashdek ulkan, keng ko'lamli ishing bir qismidir. Yo'qotishlarimiz miqyosini tasavvur qilsak, qayta topish jarayonining hali ko'p o'n yilliklar davom etishini anglash mumkin.

Erkin VOHIDOV,
O'zbekiston xalq shoiri

DO'STLIK MADHIYASI

Zikrilla NE'MAT,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi,
"Do'stlik" orzusi sohibi

Yangi O'zbekiston, quchog'ingni och,
Do'stlik festivalin shukhi senda!
Quyoshjon, sen mo'l-ko'l nurlaringni soch,
Do'stlar diydoridan obod zaminga.

"Do'stlik bolalikkdan boshlanar", deya,
Chorladik dunyoning bolajonlarin.
Ularining payg'ona to'kib-sochaylik,
Yashnagan qirlarning lolajonlarin.

Do'stlik bu — dunyoda eng oliy tuyg'u,
Mangu tinchlik tomon qo'yilgan qadam.
Qalblarda lovullab yonar bir yog'du,
Bo'laylik hamjihat, ahil, hamqadam.

Do'stlik festivali minglab xalqlarning
Bir jon, bir tan bo'lib birlashmog'idir.
Zarafshondek jo'shqin, bedor qalblarning
Amuyu Sir kabi sirlashmog'idir.

"O'zbekiston — umumiy uyimiz", debon,
Yonar bir yuz o'ttiz millat yuragi.
Mudom tinch bo'lmog'i jumlati jahon —
Barcha qardoshlarning orzu-tilagi.

Do'stlarga keng ochib mehr eshigin,
Ezgulikka chorlar ulug' Yurtboshi.
Aziz xalqim kuylab baxtlar qo'shig'in,
Boshlar uzra porlar iqbol quyoshi.

Do'stlik — ko'ngillarning bebaho mulki,
Do'stlik bu — baxt, balki undan ziyoda.
Barcha do'st-yorlarning tilagi shuklo:
Mangu tinchlik bo'lsin yorug' dunyoda.

Ey aziz diyorim, quchog'ingni och,
Do'stlik festivalin shukhi senda!
Quyoshjon, sen mo'l-ko'l nurlaringni soch,
Do'stlar diydoridan obod zaminga.

G'ayrat MAJID,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
raisining o'rinbosari

Bugun qayerda to'rt ijodkor to'plansa, albatta, kitob haqida so'z ochiladi.

Taniqli shoir va jurnalist, qadrdon do'stim Xoliyor Abdiyev bilan gurgunlashib o'tiribmiz. Mavzu o'z-o'zidan kitob, kitobxonlik tomon burildi. Buni tabiiy deb bilaman. Boisi, do'stim "ashaddiy" kitobxon, men ham undan orqada qolmaslikka harakat qilaman.



madaniyati shakllandi. Bundan quvonmay bo'ladimi axir!

Insoniyatning eng buyuk kashfiyotlaridan biri — kitob. Ammo ayni kashfiyot o'z-o'zidan bo'lmagan. Inson bolasining ehtiyoji o'laroq necha ming yillar davomida bosqichma-bosqich yuzaga kelgan. Odam dastlab o'z tuyg'ularini, fikrlarini rasmlar, turli shakllar tarzida ifodalashga intildi. Keyinchalik haqiqiy ma'nodagi yozuv paydo bo'ldi. Ular toshlarga o'yib yozildi, og'ochlarga, sopol buyumlarga naqsh etildi. Miloddan avvalgi 4-3-ming yilliklarga kelib yozuv materiali sifatida papirus o'simligi, miloddan avvalgi II asrga kelib hayvon terisidan foydalanish boshlandi. Milodiy VI asrdan e'tiboran an'anaviy ko'rinishdagi kitoblar paydo bo'ldi. Bu kitoblar husnixat egalari — hattotlar tomonidan amalga oshirildi. VII asrda xalifa Usmon ibn Affon roziyallohu anhu ko'rsatmasi bilan amalga oshirilgan Qur'oni karim — "Usmon Mus'hafi" kiyik terisiga



ko'chirilgan bo'lib, bugungi kunda ushbu muqaddas kitob O'zbekiston Musulmonlar idorasida saqlanadi.

Qog'oz o'ylab topilgach, Samarqand, Xitoy qog'ozlarining shuhrati yetti iqlimda mashhur bo'lgan. 650-yillardayoq Samarqandda qog'ozli kitoblar bo'lgani haqida yozilgan tarixiy manbalarda. Qadimgi turk — O'rxun-Enasoy yozuvi har bir ko'ngilda faxr hissini uyg'otadi. Yaqin Sharqda abosbiy hukmdorlardan biri Horun ar-Rashid davrida — 754-yil Bag'dodda qog'oz ishlab chiqaruvchi markaz qurilgan. Keyinchalik shu kabi markazlar Misrda, Shomda barpo etildi. Ilk qog'oz ishlab chiqaruvchi mashina Fransiya da ixtiro qilingan. 1400-yillarning yarmiga kelib olmon ixtirochisi Iohann Gutenberg bosma uskunasi yaratdiyu kitoblar adadini ko'paytirish imkoniyati kengaydi.

Maktabda o'qib yurgan kezarimizda ustozlar eng a'lochi o'quvchilarga kitoblar sovg'a qilardi. Bunday hadyalar asosan Yangi yil, Navro'z singari bayramlarda butun maktab o'quvchilari yig'ilgan tadbirida berilardi. Kitob olgan o'quvchidan baxtiyor odam bo'lmasdi o'shanda. Hamma unga havas qilardi. Men

ham yaxshi o'qiganman, bunday hadyalardan chetda qolmaganman.

Men-ku u damlarni bolaligimga daxldor bo'lgani uchun sog'inch bilan eslayapman. Biroq bugungi kunda kitob va kitobxonlik davlat siyosati darajasida alohida e'tibor berilib, ulkan amaliy chora-tadbirlar ko'rilayotir. Jumladan, kitobxonlik tanlovlari, marafonlar, aksiyalar, festivallar tashkil etilmoqda. "Eng yaxshi kitobxon", "Yosh kitobxon", "Kitobxon oila" kabi qator ko'rik-tanlovlar gapimga misol. Tanlov g'oliblari Prezident sovg'asi — avtomobil sohibiga aylanmoqda. Tanlovlarda millionlab yoshlarning ishtirok etishi, bu degani, shuncha ko'g'il-qizlarimiz kitobxonlik bo'yicha bellashadi, bu bellashuv oldidan o'nlab kitoblarni mutolaa qilishini anglatadi. Ya'ni yosh avlod ko'nglida mutolaga bo'lgan intilish, qiziqish mustahkamlanadi.

Shoiru adiblarimiz, noshirlarimiz tez-tez dunyoning eng nufuzli xalqaro kitob anjumanlarida ishtirok etib kelmoqda. Ayni chog'da o'zimizda ham bu kabi xalqaro ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar muntazam o'tkazilayotir.

Mahallalarda kutubxonalar tashkil etilmoqda. Birgina Toshkent shahrining o'zida banklar tashabbusi bilan 115 ta mahalla kutubxonasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Yurtimizda shaxsiy kutubxonasida 10 mingdan ortiq kitoblari mavjud oilalar bor. Bunga misol sifatida taniqli ijodkorlar Mahmud Sa'diy, Murod Xidir, Mahkam Mahmud, Suyvon Melilarning shaxsiy kutubxonalari keltirib o'tish mumkin. Shunday shaxsiy kutubxonalarda noyob qo'lyozma asarlarining

"Muhabbat maxzani", Belarus Prezidentiga Yakub Kolasning "Qadrdon qo'shiqlar", Fransiya Prezidentiga Viktor Gyugoning "Kulayotgan odam", Vengriya bosh vaziriga Yanosh Aronning "Ajoyib ohuning hikoyati", Turkmaniston yetakchisiga Maktumqulning "Tanlangan asarlar"i... Bu ro'yxatni yana davom ettirish mumkin.

Davlatimiz rahbarining bu kabi kitoblar sovg'a qilishida chuqur ma'no mujassam. Bu O'zbekiston xalqi sizning ilmiy, adabiy, ma'naviy merosingizdan boxabar, ularni o'qiydi, qadrlaydi degani. Ayni shu narsaning o'zi diplomatik munosabatlarning eng oliy cho'qqisidir. Dunyoning boshqa mamlakatlari rahbarlari ham bizning Prezidentdan ibrat olayotgani bor gap.

Tabiyki, bu kabi go'zal munosabat har qanday odamni hayratlantiradi. Toshkent xalqaro investitsiya forumida so'zga chiqqan Bolgariya Prezidenti Rumen Radev o'z hayajonlarini, jumladan, mana bunday tarzda ifoda etgan edi: "Bugun tongda janob Prezident Shavkat Mirziyoyev meni yana bir bor hayratlantirdi. Prezidentlik faoliyatimning to'qqiz yili davomida juda ko'p mamlakatlarda bo'ldim. Ko'plab davlat rahbarlari va hukumat boshliqlari bilan uchrashdim. Biroq menga ilk bor kitob sovg'a qilishdi. Bu kitob mukammal tahlil natijasidir. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligidagi jamoaning Bolgariya salohiyatini qanchalik chuqur tahlil etganini ko'rib, juda katta taassurot oldim. Unda kompaniyalar, tarmoqlar, sanoat yo'nalishlari hamda ilg'or texnologiyalar aniq va mukammal bayon etilgan. Bu har tomonlama puxta ishlab chiqilgan tahliliy asar. Shuni ta'kidlashni istardimki, muhtaram Prezident, biz bizneslarimizni bog'lash, ilmiy va amaliy institutlarimizni uyg'unlashtirish va barcha yo'nalishlarda olg'a siljish uchun bor kuchimiz va salohiyatimizni safarbar etamiz".

Shavkat Mirziyoyev 2019-yilda Yaponiyaning Nagoya universiteti ilmiy kengashi tomonidan faxriy doktor unvoni bilan taqdirlandi. Marosimda Prezidentimiz so'zga chiqib, universitet ilmiy jamoasiga minnatdorlik bildirdi va universitet kutubxonasiga o'zbek tilida chop etilgan Yaponiya Konstitutsiyasi, "Yapon she'riyat guldastasi", "Markaziy Osiyo madaniy merosi Yaponiya to'plamlarida", "O'zbekiston yaponiyalik qalbida" kabi bir qancha kitob va albomlar taqdim etdi.

Bulardan tashqari, mamlakatimiz rahbari 2020-yilning fevralida Anqaradagi Xalq kutubxonasi ochilishida qatnashib, Turkiya Prezidenti huzuridagi bu kutubxonaga "Usmon Mus'hafi"ning o'zbek xattotlari tomonidan ko'chirilgan nusxasini, Jaloliddin Rumiyning "Masnaviyi-ma'naviy" hamda Abu Bakr ar-Roziyning "Kasalliklar tarixi" asari qo'lyozmalarining faksimile nusxalarini, "Alisher Navoiy asarlarining Istanbul kutubxonalaridagi tasviri nusxalarini" nomli kitob-albomini, shuningdek, turk mumtoz shoiri Yunus Emroning o'zbek tiliga o'g'irilgan "O'lmas ko'ngul" she'rlar to'plamini sovg'a qilgan edi.

Diplomatiyaning bunday yorqin shakllarini ko'rib, bilib yaxoldan shayx Najmiddin Kubro hazratlarining quyiyaq ibratli so'zlari o'tdi, "Kitob sahroda do'st, hayot yo'llarida tayanch, yoq'izlik damlarida yo'llarda, baxtiyor dalg'alarda rahbar, qayg'u dildosh madadkor, odamlar orasida zebu ziynat, dushmanlarga qarshi kurashda qurolidir".

Kitob diplomatiyasi. Bu ibora oldin ham bo'lgan. Biroq davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev nomi bilan bog'langanda boshqacha jaranglaydi. Yurt egasining ulug' ajdodlarimizning kitob sovg'a qilishdek odatlarini xalqaro miqyosda urfga aylantirgan davlat rahbari sifatida ham olib borayotgan faoliyati tahsinga loyiqdir.

"Kitob ellarni, dillarni birlashtiradi" degani shu-da...

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati" DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-746.
34972 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Boboravshan G'oziddinov
Musahhih: Asliddin Abdurazaqov
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilmiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy